- работа с представителями производства в плане согласования учебного контента.

Для анализа рассмотрим процесс подготовки молодых специалистов по направлениям сельского хозяйства. К примеру возьмем направление образования бакалавриата «Защита растений и карантин». На первом курсе на данном направлении образования преподаются предметы – математика, русский язык, иностранный язык, химия, физика и другие.

Рассмотрим подробно роль и значимость этих учебных предметов. Начнем, с нем химии. Этот предмет помогает понять структура и свойства почвенного слоя, растений и процессы, протекающие в них. Физика – анализ полученных данных, обобщение и создание модели для расчета изучения процессов. Иностранный язык (английский язык/немецкий язык/французский язык) – формирование базы словарного базы, позволяющая понять приведенную информацию на другом языке и создать условия для претворения в жизнь программы обмена студентами среди ВУЗов. Математика – осуществление расчета и анализ полученных результатов. Ботаника – анализ и обобщение информации по технологии выращивания сельскохозяйственных культур [3-5].

В общем, если обобщать по различным языкам (русский, английский, немецкий), то получаем следующий вывод: ознакомление специалистов с подобной информацией и обсуждение результатов.



Приведенной моделью учебного процесса позволяет получить высокий уровень понимания учебного материала, более широкого осмысления информации студентами, но этот процесс зависит от усвоения, полного осмысления имеющегося материала. Потому что в этом случае включается в действие комплексные связи между этими предметами [3].

Использование в процессе обучения различных форм подачи учебного материала важно для усиления обратной связи, т.е. понимание сущности и полного осмысления изучаемой проблемы с точки зрения различных учебных предметов, создания новых технологических решений [3,4].

Исходя из этого, можно сделать вывод, сегодня сформированные и имеющиеся высоко квалифицированные кадры в будущем дадут толчок для развития экономики и повышения обеспеченности всего общества, на основе их решений будет создан фундамент будущих успехов.

Литература.

1. Kiryigitov B., Nosirova M. Software facilities in translation / «Современные материалы, техника и технологии в машиностроении». Материалы III Международная научно-практическая конференция. Андижан, 2016. С.259-263.
2. Султанов А. Применение информационной системы в сфере сельского хозяйства., 2019 С.207-209
3. Кирйигитов Б., Носирова М. Значение межпредметной связи для повышения усвоения учебного материала / «Modern informatics and its teaching methods (MITM2020)» Materials of the International Online distance Conference. Andijan, 2020. 294-296-бетлар.
4. Кирйигитов Б., Мадаминов З. Инглиз тилини ўрганишда мультимедияли дастурий воситалар қўлланилиши. / «Таълим жараенига ахборот коммуникация технологияларини тадбиқ қилиш муаммолари» мавзусидаги Республика илмий ва илмий-техник анжумани мутериаллари. Андижон. 2017. 2 қисм. 289-290-бетлар.
5. Nosirova M.K. Formation of foreign language communicative competence of students in the framework of modular program. International scientific journal. //Economy and society. № 6(73)-s.: 2020.



6. Набиева Г., Отакишиева Г. Значение технических знаний и анализе учебного материала о физике. //“Ilm-fan va ta’limda innovasion yondashuvlar ,muammolar, taklif va yechimlar “mavzusidagi 12-sonli respublika ilmiy –onlayn konferensiyasi. 30 iyun 2021 yil. Farg’ona.

7. Набиева Г. Talimda innovasion texnologiyalar qo’llanilishi //“Ozbekistonda fanlararo innovasiyalar va ilmiy tadqiqotlar”jurnali. -2022-5-son.



FEATURES OF HUMAN PSYCHOLOGY IN THE PROCESS OF SOCIALIZATION

Ismailova Gulsara Jalgasbaevna

Psychologist of the school named after I.Yusupov

Phone +998 97 2203939

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the peculiarities of human psychology, the processes of socialization and their relationship.

Keywords. Human psychology, socialization, thought, thinking, psyche, business acumen.

The development of modern science emphasizes the need to significantly strengthen the study of the developmental exercises of human psychology. The problem of artificial intelligence, in particular, requires the study of psychological differences in the socialization of man and the exercises of personal development.

Psychological development of a person is primarily directly related to the social center. In the science of world psychology, the interpretation of the individual as a product of the social center is accepted. It should be noted that the process of assimilation of social experience of a person, which reflects the relationship of the individual to the individual activity and the purpose for which he is engaged in spiritual activity, is characterized by personality traits, business acumen, perceptive motives.¹ In other words, entrepreneurship arises in the actions of a person who seeks to resolve the gifts in the environment.

A person's diligence helps him to choose a path for his future, to master it, to find his place in life. Monotonous living conditions have the potential to create different forms of personal activity and to create different living conditions. Thus, the notion of a person arises due to the fact that all external drivers that affect a person are enriched by social conditions, the structure of the internal educational units of business.

¹ Ш.Алланазарова, З.Матуразова. Шахстың психологиялық жағдайлары хәм өзгешеликлери. Нөкис – 2016. 39.



When a person participates in the activities of different groups in society, often they also perform various tasks, play different roles. For example, parents, children and more. It can also be humorous and amusing if it is weighty, demanding and not joining others in the line of duty, and if it is helpful and collaborative in the service.² From the above examples, one person in different situations plays opposite roles in terms of content. In some cases, a person shows the qualities that are appropriate to them in different situations, according to the circumstances, he plays the roles he has taken on in the home, in the service, in the community, in sports competitions, and so on, not against each other. The inconsistency of these human qualities, feelings, and attributes is one of the signs of a person's identity, in which contradictions, difficulties, and immature qualities are reflected in the fact that they are performed in different situations.

In Uzbekistan, the ban on the transfer of a person to a person is related to the process of building a humane, impartial, legal society, and is limited to the necessary categories, such as active participation in this social process. The development of the discipline of world psychology, as shown in the experiments of humanist scientists, shows that the psychological structure and psychological qualities of the individual form a unique, stable unity in each individual. This, in turn, allows you to strongly confirm the idea of the stability, rigidity, stereotypes of the psychological structure of the individual.

Mental conditions, gifts (feelings, desires, dreams, thoughts) are constantly changing, behavior in social groups changes depending on the role of the person in life, aging and psychological appearance of the person to some extent remains stable. This strict stability is closely connected with the stability of the set of social relations, which is formed by human interaction with the conditions of its creation, the manifestation of its physical properties. But the stability we have mentioned has a strict nature. Therefore, changes in the psychological structure of the individual have been studied in a number of studies by psychologists. These changes are the center of human creation, the implementation of which is reflected in the service, they are directly related to the social impact, the state of education. Therefore, the relatively stable and relatively variable qualities of a person consist of a composite unit consisting of the individuality and interconnectedness of human emotions.

² Ш.Алланазарова, З.Матуразова. Психологияда билиў процесслери (Оқыў-методикалық колланба). Нөкис – 2012. 32.



In short, psychological differences in the process of socialization of the individual are a measure of all social relations.

List of used literature:

1. Ш.Алланазарова, З.Матуразова. Шахстың психологиялық жағдайлары хәм өзгешеликтери. Нөкис – 2016. 39
2. Ш.Алланазарова, З.Матуразова. Психологияда билиў процесслери (Оқыў-методикалық қолланба). Нөкис – 2012. 32.



YURTIMIZDA ISSIQXONA XO‘JALIKLARINI RIVOJLANTISH, ULAR FAOLIYATINI HAR TOMONILAMA QO‘LLAB QUVVATLASH YUZASIDAN KO‘RILAYOTGAN HUQUQIY CHORA-TADBIRLAR

Parkent tumani adliya bo‘limi Yuridik xizmat
ko‘rsatish markazi boshlig‘i **S.Xasanboyev**

So‘ngi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni, ular tomonidan ishlab chiqargan mahsulotlar hajmi ortib bormoqda. Ayniqsa, aholini sifatli oziq ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu maqsadda yurtimizda qishloq xo‘jaligi sohasiga, ayniqsa issiqxona xo‘jaliklari faoliyatiga katta e‘tibor berib kelinmoqda.

Ushbu sohada O‘zbekiston Respublikasining qonunlari hamda, Prezident farmon, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me‘yoriy hujjatlar soha rivojiga huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yining 2-noyabrdagi “Issiqxona xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 413-sonli qarori ham aholiga sifatli va kafolatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berishga va shu orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash ushbu sohada issiqxona xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishga, ular faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Mazkur qarorga asosan xalqaro moliya institutlari, maqsadli jamg‘armalar hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan issiqxona xo‘jaliklari va muzlatkichli omborxonalar uchun ajratilgan milliy va xorijiy valyutadagi kreditlarni qaytarish muddatlarini umumiy hisobda 14 yil etib belgilash va imtiyozli davrini 3 yildan 5 yilgacha uzaytirish, issiqxona xo‘jaliklarini aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash uchun tijorat banklari tomonidan bir yil muddatga olti oylik imtiyozli davr bilan kredit ajratish belgilangan.

Bu esa, sohada tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy jihatdan ancha qulayliklar yaratishga va shu orqali ular faoliyatining moliyaviy barqarorligiga xizmat qiladi.

Shuningdek, qarorga asosan issiqxona xo‘jaliklariga tabiiy gaz bo‘yicha to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirmaganlik uchun penya summasi 2022-yil 1-oktabrdan 2023-yil 1-aprelgacha hisoblanmasligi, qarorning 4-bandi “a” kichik bandiga ko‘ra issiqxona xo‘jaliklari uchun tijorat banklariga kredit va ularning foizini qaytarish muddati qat‘iy ravishda mahsulotning pishib-etilishi davriga moslashtirilishi belgilandi.



Ushbu belgilangan chora-tadbirlar xususan, tabiiy gaz bo'yicha penya to'lovlariga vaqtinchalik moratoriyning joriy qilinishi issiqxonalar xo'jaliklari qarzdorliklarining oshishini oldini olishga sabab bo'ladi hamda kredit to'lovlarining mahsulotning pishib-etilishi davriga moslashtirilishi real daromad mavjud bo'lgan vaqtda kredit to'lovlarini to'lashda issiqxonalar xo'jaliklariga qulaylik yaratadi.

Yurtimizda bugungi kunda umumiy maydoni 6 322 gektardan ortiq bo'lgan 3 mindan ziyod issiqxonalar mavjud. Yuqorida belgilangan chora-tadbirlar esa, ushbu issiqxonalar xo'jaliklari faoliyati samaradorligiga, aholi daromadlarining oshishiga va shu orqali aholi dasturxoniga sifatli va uzluksiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yetkazib berilishiga xizmat qilishi shubhasiz.



XUSUSIY MULKNI YANADA QIMOYA QILISH SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN HUQUQIY ISLOHOTLAR

**Parkent tumani adliya bo'limi Yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti M.Mansurov**

Tarixiy tajribadan ma'lumki, xususiy mulk mavjud bo'lmagan hamda mulkdorlarning huquqlari kafolatlanmagan jamiyatda iqtisodiy taraqqiyotga erishish qiyin. Mamalakatda mulkning tayinli egasi mavjud emasligi, iqtisodiyotni, sanoatni davlat tomonidan nazoratga olinishi, jamiyatda talab va taklifning suniy tartibga solinishi malakatda iqtisodiy bo'xronlarga sabab bo'ladi.

Buni, yaqin o'tmishdagi sobiq sovet tuzumi amaliyotidan ham ko'rish mumkin. Ushbu tuzumda xususiy mulkning amalda mavjud emasligi, bozor munosabatlari, iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi natijasida ushbu tuzum hayotda o'zini oqlamaganligi yuqoridagi fiklar isbotidir.

Aynan xususiy sektor mamlakatning iqtisodiy, moddiy ehtiyojlarini qondirishda yetkachi o'rinda turadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach eng birinchi e'tibor xususiy mulkchilikni qaror toptirishga qaratilganligi ham bejiz emas. Mustaqillikdan so'ng mamlakat bosh qomusida xususiy mulkning daxlsizligi kafolatlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga asosan xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi hamda mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkinligi belgilangan.

Bundan tashqari, Fuqarolik kodeksi, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonun hujjatlarida ham mulk huquqining kafolatlari belgilab o'tilgan.

Qolaversa, davlat rahbari, malakat hukumati tomonidan mulkchilikni har tomonilama himoya qilishga qaratilgan ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ushbu soha yanda takomillashtirib borilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi "Mulq huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'yimaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-198-son Farmoni ham aynan mulkchilik munosabatlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Farmonga asosan 2022-yil 1-sentabrdan boshlab yer uchastkalariga bo'lgan huquqning vujudga kelishi uchun asos bo'lgan hujjatlarni, shu jumladan Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlarini ularning o'zi yoki yuqori turuvchi organ va mansabdor shaxslar tomonidan, xususan prokuror protesti asosida bekor qilish yo'li bilan yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tugatish bekor qilindi.



Shuningdek, agarda yer ujjastkasi mulkdori yer uchastkasidan ixtiyoriy voz kechsa yerga bo'lgan huquqning bekor qilinishini hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilinib, ixtiyoriy voz kechish to'g'risida notarial tasdiqlangan ariza ushbu yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni bekor qilish uchun asos bo'lib hisoblanishi belgilandi.

Bu esa, amaliyotda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yer mulkdoriga turli xil yo'llar bilan ariza yozdirish orqali yer uchastkalarini olib qo'yishni oldini olishga qaratilgan.

Ma'lumki, Yer kodeksining 36-moddasiga asosan butun yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga egalik qilish huquqi yoxud undan doimiy yoki muddatli foydalanish huquqi, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqi yuridik shaxs tugatilganda bekor qilinishi belgilangan.

Farmonga asosan, 2022-yil 1-sentabrdan boshlab ushbu amaliyot bekor qilinishi, ushbu holatda yuridik shaxs tugatilgan taqdirda (qishloq xo'jaligi yerlaridan tashqari) unga tegishli bo'lgan yer uchastkasiga bo'lgan mulk huquqi bekor qilinmasdan, shu yuridik shaxs ta'sischi lari o'rtasida ularning ulushiga mutanosib ravishda o'tkazilishi belgilandi.

“Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida”gi qonunning 24-moddasida jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgan ko'chmas mulk obyektini uchun boshqa ko'chmas mulk obyektini mulk qilib berish ko'rsatilgan.

Farmonga asosan 2022-yil 1-sentabrdan boshlab ushbu yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishda kompensatsiya sifatida davlat mulkidagi boshqa ko'chmas mulk obyektini mulk qilib berish amaliyoti ham bekor qilinib bundan ko'p kvartirali uylarda joylashgan turar joy obyektlari mustasno ekanligi ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, Farmonning 1-bandi “b” kichik bandiga asosan turar joyga nisbatan mulkiy huquqlarga yoki turar joy mulkdori bilan qarindoshlik aloqalariga ega bo'lmagan shaxslarni ushbu turar joydan doimiy ro'yxatdan chiqarish uchun ularning roziligini olish talabi, sud tomonidan turar joyga nisbatan insofli egallovchi deb topilgan jismoniy shaxsdan ushbu turar joyni unga nisbatan mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab uch yil o'tgach natura shaklida talab qilib olish amaliyoti tugatildi.

Yuqoridagilardan tashqari, Farmonda ko'chmas mulk bilan bog'liq boshqa bir qator munosabatlarda turli xil qoidalar bekor qilinib, ko'chmas mulkdan foydalanishda hamda sohada huquqlar kafolatlanishida boshqa bir qator afzalliklar belgilab o'tildi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakat rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan bu kabi huquqiy islohotlar jamiyatda mulkdorlar huquqlarining har tomonlama kafolatlanishiga, jamiyatda xususiy mulk huquqi daxlsizligiga sabab bo'ladi.

Bu esa, o'z o'rnida har bir shaxsning o'z mulkidan moddiy manfaatdorligini oshishiga hamda mamlakat konstitutsiyasida belgilangan qoidalarning amaliyotda to'la qonli ishlashiga xizmat qiladi.



TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH - AHOLI DAROMADINI RIVOJLANTIRISH YALPI ICHKI MAHSULOT HAMDA YALPI MILLIY DAROMAD OSHISHINING ASOSIY OMILIDIR.

Parkent tumani adliya bo'limi Yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti **D.Turdaliyev**

Aholi daromadlarini oshirish, mamalakatda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, YaIM hamda YaID da tadbirkorlik subyektlarini hissasini oshirish, sog'lom raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotini qaror toptirish va shu orqali malakatda ishsizlik ko'rsatkichlarini keskin qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish mamlakatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, bozor munosabatlari sharoitida mamlakat iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bu albatta tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdir.

2022 yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekistonda YaIM hajmi 627,5 trln so'mni tashkil etib. Davlat statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 2021 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 5,8 foizga oshgan.

Shuningdek, YaIMda kichik va o'rta biznesning ulushi 2022-yilning noyabr oyi holatiga 52,8 fozini tashkil etgan.

Ushbu ko'rsatkichlarni yanada yahshilash maqsadida mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, sohada ortiqcha ma'muriy tartib taomilarni qisqartirishga, tadbirkorlik subyektlariga qulay ishbilarmonlik hamda investitsiyaviy muhitni yaratishga qaratilgan huquqiy islohotlar izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan joriy yilning 9-noyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 244-sonli qarori ham tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida qabul qilingan.

Qaroroga asosan davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini faqatgina, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatdan o'tkazish, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha litsenziyalash, ruxsat berish hamda xabardor qilish, texnik jihatdan tartibga solish, ta'rif va nota'rif tartibga solish va boshqa vositalar orqali tartibga solish belgilandi.

Bu esa, tadbirkorlik faoliyatiga davlatning ortiqcha aralashuvini cheklashga qaratilgan.

Shuningdek, qarorga asosan normativ huquqiy yoki texnik jihatdan tartibga solish sohasida normativ huquqiy hujjat hisoblanmagan hujjatlarda belgilangan tartibga solish vositalari huquqiy oqibat keltirib chiqarmasligi belgilab o'tildi. Ushbu qoidaning amalga kiritilishi tadbirkorlik faoliyatini faqatgina belgilangan tartibda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solishga va shu orqali tadbirkorlik faoliyatining, ular erkinligining qonunchilik hujjatlari bilan kafolatlanishiga xizmat qiladi.



Bundan tashqari, qarorning 3-bandiga asosan 2023-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektining ustav kapitalini kamaytish haqida qaror qabul qilinganda kreditorlarni yozma xabardor qilish hamda ommaviy axborot vositalarida e’lon berish, yangi import avtomobillarini faqatgina ishlab chiqaruvchi korxonalar orqali amalga oshirish, elektr energiyasini shartnomada belgilanganidan ortiq iste’mol qilgan tadbirkorlik subyektlariga elektr energiyasini yetkazib berishni to’xtatib qo’yish, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan yollangan xodimlarni Yagona milliy mehnat tizimi orqali soliq organlarida laohida hisobga qo’yish bekor qilinishi belgilab o’tildi.

Shuningdek, Soliq kodeksining 231-moddasi to’rtinchi qismiga asosan soliq organining sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditi natijalari bo’yicha qabul qilgan qarorlari ustidan sud tartibida shikoyat qilish faqat yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilinganidan keyingina amalga oshirilishi belgilangan bo’lib, bu esa amaliyotda tadbirkorlik subyektlariga bir qator noqulayliklar, ortiqcha sarsongarchiklar keltirib chiqarayotgan edi.

Aynan qarorning 4-bandiga asosan mazkur qoida 2023-yilning 1-martidan boshlab bekor qilinishi, xususan soliq organlarining sayyor soliq tekshiruvi hamda aoliq auditi bo’yicha qabul qilgan qarorlari yuzasidan to’g’ridan to’g’ri sudga shikoyat qilish huquqi berilishi belgilandi.

Ushbu qoidaning amalga kiritilishi orqali “Sudlar to’g’risida”gi qonunning 14-moddasida belgilangan jismoniy va yuridik shaxslarning o’zlarining huquqlarini tiklashda sud himoyasida bo’lish huquqi ta’minlanadi.

Yuqoridagilardan tashqari, prezident qaroriga asosan tadbirkorlik faoliyatida yana bir qator erkinliklar, afzalliklar belgilangan bo’lib mazkur chora-tadbirlar mamlakatda tadbirkorlik muhitining ham sifat ham son jihatidan ortishiga, pirovard natijada aholi daromadlarining, ularning turmush farovonligining, YaIM hajmining ortishiga xizmat qilishi shubxasiz.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI JADAL RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR

Parkent tumani adliya bo‘limi Yuridik xizmat
ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti **D.Tojiboyev**

Hozirgi kunda bir qator mamlakatlar YaIDning salmoqli ulushi ichki va tashqi turizm sohasiga to‘g‘ri keladi. Turizm boshqa sohalar kabi ortiqcha ish va xarajatlar talab qilmaydigan va shu bilan birga ancha samaralari daromad keltiruvchi soha hisoblanadi.

Shunisi e‘tiborliki, turizm rivojlanishi o‘z o‘rnida transport, bozor infratuzilmasi, qurilish savdo-sotiq kabi sohalarni rivojlanishiga omil bo‘lib xizmta qiladi.

Shuning uchun ham bugungi kunda ko‘plab malakatalar tomonidan turizm sohasini rivojlantirish borasida islohotlar chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu singari yurtimizda ham turizmning milliy modelini shakllantirish bo‘yicha bir qator maqsad va vazifalar belgilangan bo‘lib, bunda turistik bozor mamlakatning ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta‘sir ko‘rsatadigan hamda boshqa davlatlar bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, o‘zro muloqot almashish va shu orqali mamlakatga investitsiya va kapital oqimini oshirishning vositasi sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston o‘zining boy madaniy tarixiga egaligi bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turadi. Mamlakatda ko‘plab ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar mavjud bo‘lib, respublikaning ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha salohiyati yuqori hisoblanadi.

Bundan tashqari, «Buyuk Ipak yo‘li» loyihasi ko‘plab davlatlarni hamda xalqaro tashkilotlarni qiziqtirib, 1994-yildan boshlab Butunjahon Turistik Tashkiloti «Buyuk Ipak yo‘li» loyihasini jahon hamjamiyatiga faol targ‘ibot qilib kelmoqda.

Bugungi kunda respublikada to‘rtta asosiy turistik mintaqa mavjud bo‘lib, ular Farg‘ona, Samarqand - Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg‘ona turizm mintaqasi Farg‘ona vodiysini o‘z ichiga qamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalari va me‘morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an‘anaviy xalq hunarmandchiligi va san‘ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat.

Mamlakatning turizm salohiyatidan unumli foydalanish, sohani yanada rivojlantirish, sayyohlarni yurtimizga keng jalb qilish maqsadida yurtimizda ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son [Farmoni](#) ga asosan “2019 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish” Konsepsiyasi tasdiqlangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-son [qarori](#) qabul qilindi.

Qarorning 2-bandi “v” kichik bandiga asosan mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan tuman va shaharlar belgilangan bo‘lib, ushbu hududlarda ro‘yxatdan o‘tgan hamda ushbu hududda umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish), savdo, ko‘ngilochar, turoperator va turagent



xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun 2022-yil 1-apreldan boshlab 2025-yil 1-yanvarga qadar aylanmadan olinadigan soliq stavkasini — 1 foiz, ushbu hududlardagi obyektlar va ular egallagan yer uchastkasi bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i miqdorlarini — mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilash ko'rsatildi.

Shuningdek, qarorda 2022-yil 1-yanvardan uyali aloqa operatorlari uchun uyali aloqa xizmatlariga solinadigan aksiz solig'i stavkasini 10 foiz etib o'rnatish, 2022-yil 1-apreldan boshlab qishloq joylarda antenna-machta metall konstruksiyalarini, ularga o'rnatilgan va ularning ajralmas qismi bo'lgan konstruksiyalar hamda ular egallagan yer uchastkalarini yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'idan ozod etish belgilandi.

Ushbu qarorga asosan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-noyabrdagi "Chet davlat fuqarolari tomonidan o'zbekiston respublikasi hududidan chiqib ketishda avval xarid qilingan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 653-son [qarori](#) qabul qilindi.

Qarorga asosan, 2023-yil 1-yanvardan boshlab chet davlat fuqarolariga ular tomonidan O'zbekiston hududidagi chakana savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlaridan ayrim turdagi tovarlarni sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini qisman qaytarish tizimi joriy etilishi belgilandi.

Ushbu amaliyot turizm rivojlangan bir qator chet el mamalakatlarini, jumladan Fransiyada joriy etilgan bo'lib, sayyohlarga yanada qulaylik yaratish, mamlakatga sayyohlar qiziqishini oshirish va shu orqali sayyohlar oqimini ko'paytirishda ancha samarali hisoblanadi.

Yuqoridagi normativ huquqiy-hujjatlarda sayyohlarga keng qulayliklar yaratishga, turizm sohasini jadal rivojlantirishga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, ushbu chora-tadbirlar amaliyotda o'zining ijobiy natijalarini berishi va shu orqali sayyohlar oqimini ko'payishiga, malakat taraqqiyoti, logistika, mehmonxona, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalar rivojiga sabab bo'ladi.



IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Boqiyeva Nozimaxon

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: ADPI katta o'qituvchisi

PhD. Qodirova Buzulayho Turg'unovna

Annotatsiya: Maqolada iqtidorli o'quvchilarni erta aniqlash va iqtidorini ro'yobga chiqarishning maqsad va vazifalari hamda omillari, jarayonlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: iqtidorli o'quvchi, yosh izlanuvchi, ta'lim jarayoni, omil, boshqaruv faoliyati, iqtidor, ilmiy.

KIRISH

Iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda jahon miqyosidagi buyuk kashfiyotlarni jamiyatimizning negizini tashkil etadigan buyuk allomalarimiz merosiga tayangan holda bugungi zamon talabalaridan kelib chiqib, xalq farovonligiga xizmat qiladigan buyuk kashfiyotlar yaratish ko'nikma va malakalarini hosil qilish muhim ahamiyat kasb etdi.

Bilimli, iqtidorli bola nafaqat o'zining, balki xalq, millatning ham kelajagini belgilaydi. Iqtidorli yoshlar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Shu o'rinda «Iqtidorli yoshlar kimlar?» degan savol paydo bo'ladi. «Iqtidor» arabcha «qodir bo'lmoq», «qila olmoq», shaxsning ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha, shuningdek, iqtidorli yoshlar maqsadga intilish, qat'iyatlilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlari hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagining kuchliligi bilan ajralib turadilar. Iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash va tarbiyalashning



asosiy maqsadi respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tayyorlash, yordam berish, iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish hamda ulardagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim muassasalarida o'quvchilar shaxsining rivojlanishi, ularning qiziqishlari, iqtidorlarini ro'yobga chiqishi, mustaqil bilim olishlariga va ijodiy mehnat qilishlariga shart-sharoit yaratish lozim. Shuning uchun ham davlat iste'dodli yoshlarni alohida qo'llab-quvvatlaydi. Ta'lim muassasalarining iqtidorli o'quvchilari maxsus psixologik va pedagogik test o'tkazish orqali aniqlanadi. Bunday o'quvchilarni maqsadli hayotga yo'llashda ta'lim muassasalarining vazifalari quyidagilardan iboratdir:

iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyati, chuqur bilim olishi va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

malakali o'qituvchilarni iqtidorli o'quvchilar bilan individual (yakka tartibda) ishlashga safarbar qilish;

ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy jamiyat ishlariga iqtidorli o'quvchilarni keng jalb etish;

iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda maktabda iqtidorli o'quvchilar haqidagi ma'lumotlar banki va ularni doimiy tashxislash monitoringini shakllantirish;

ular bilan ishlashning ilg'or pedagogik texnologiyalarini aniqlash;

oliy ta'lim muassasalari, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan yetuk mutaxassislar bilan hamkorlik qilish [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Umumiy ta'lim maktablarida iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash mazmuni quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin:

maqsadli dastur bo'yicha yakka tartibda (individual) o'qitish;

chuqurlashtirilgan dastur bo'yicha o'qitish (fundamental fanlar, umumkasbiy fanlar);

oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va litsey talablariga asoslangan holda maktabda iqtidorli o'quvchilarning kasbiy, o'quv-ijodiy va tarbiyaviy tayyorgarligining qo'shimcha yo'nalishi va ta'lim xizmatlarini joriy etish.



Iqtidorli o‘quvchini maqsadli tayyorlash dasturlarida ular egallashi zarur bo‘lgan quyidagi omillar nazarda tutiladi:

fanlarni yuqori darajada o‘zlashtirish;

kompyuter bilimdonligi hamda dasturlashtirishni chuqur bilish;

chet tillaridan savodxonlik;

ilmiy-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlash, yangi fikr-mulohazalarni bildira olish ko‘nikma va malakalarini egallash;

soha bo‘yicha yangiliklarni tezkorlik bilan egallash;

davlatning ichki va tashqi siyosatini to‘g‘ri tushunadigan va uni qo‘llab-quvvatlaydigan, vatanparvar, barkamol inson sifatida o‘zini namoyon etish.

Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda ustoz-shogird an‘anasiga qat‘iy rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonga ilmiy rahbar sifatida o‘quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturi bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lgan o‘qituvchilar jalb etiladi. Bunday qobiliyatli o‘quvchilarga ilmiy rahbar etib ijodiy va uslubiy ishlash tajribasiga ega bo‘lgan o‘quv-uslubiy va ilmiy faoliyati bo‘yicha reytingi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar tanlanadi [2].

Iqtidorli o‘quvchilarning ilmiy rahbarlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

iqtidorli o‘quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturini yaratish va uni amalga oshirishga rahbarlik qilish;

iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash bo‘yicha yetakchi xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalarni bilish va ularni o‘z faoliyatida qo‘llash;

yangi pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq qilish;

kompyuter texnologiyasi va video, audiotexnikalar, elektron darsliklarni keng qo‘llash;

maqsadli dasturni muvaffaqiyatli bajarayotgan iqtidorli o‘quvchilarni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida iqtidorli bolalar bilan ishlashni tashkil etishning o‘ziga xos tizimi mavjud bo‘lib, unda muassasada mavjud barcha sub‘ektlar ishtirok etadi. Jumladan, maktab direktori va uning o‘rinbosarlari, uslubiy birlashmalar, sinf murrabbiysi, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari, ota-onalar hamda barcha o‘qituvchi-murabbiylar shular



jumlasidandir [4]. Mazkur sub'ektlarning iqtidorli bolalar bilan ishlashda o'z vazifalari bo'lib, ular yagona maqsadni amalga oshiradilar.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash orqali ta'lim muassasalari o'z oldiga qo'ygan vazifalarni, ya'ni yoshlarni mustaqil fikrlash, bo'sh vaqtlarini tashkil etish, ularning birorta kasb-hunar egallashi uchun poydevor yaratish, iqtidorli, ijodkor o'quvchilarni rag'batlantirish ishlarini mahalla hamkorligida amalga oshirish orqali iqtidorli o'quvchilar safini kengaytirishga erishadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, tanlash va tarbiyalash borasida mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, vatanimiz iqtidoriy salohiyatni dunyo miqyosida namoyon etish imkonini beradi.

Shuningdek:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtidorli bolalarni aniqlash va tarbiyalashning pedagogik mexanizmini yaratish;

iqtidorli bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish mazmunini ishlab chiqish (o'quv reja, maqsadli dastur);

umumiy o'rta ta'lim maktablarida mavjud pedagogik sub'ektlar imkoniyati va salohiyatini shu jarayonga safarbar etish;

umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida «Iqtidorli bolalar maktabi», «Kichik akademiya»lar tashkil etish va ularda iqtidorli bolalarning qiziqishlariga ko'ra iqtidorlarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning bilan birga:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtidorli bolalarni erta aniqlash bo'yicha pedagogik, psixologik, ilmiy salohiyat, kasbiy salohiyat kompleks tashxis dasturlarini yaratish va uni amalga joriy etish mexanizmini ishlab chiqish;

ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maktab, oila, fuqarolik jamiyati, ilmiy muassasalarning ijodiy-pedagogik hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.



ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 jild. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediya- si» Davlat ilmiy nashriyoti, 2016.
2. Yo‘ldoshev X.K. Barkamol avlodni tarbiyalash oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasi. – T., 2012.
3. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. – T.: «Akademiya», 2017.
4. www.ziyonet.uz



KATTA YOSHDAGI BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISH USULLARI

Husanova Muhayyo

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: ADPI katta o'qituvchisi

PhD. Qodirova Buzulayho Turg'unovna

Annotatsiya: Bolalarga rasm chizishga o'rgatish ancha erta yoshdan boshlanadi. Bu davr bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish davri deyiladi. Bu davrda bolalarqalamni to'g'ri ushlashni, uni qog'oz yuzasiga chizishni asta-sekinlik bilan o'rganib boradilar lekin bu jarayonni bir o'zlari amalga oshirolmaydi shuning uchun tarbiyachi bolalarga qalamni qanday ushlash kerakligini urgatadi. Bundan tashqari bolalar tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida asosan amaliy ish bajaradilar.

Kalit so'zlar: tasviriy faoliyat, aqliy rivojlanish, ijodiy qobiliyat, loy qurish-yasash, applikatsiya.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlaridan tadbiriq etish va ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ta'lim tashkilotlarining moddiy texnika bazasini va maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Shunga ko'ra kelajagimiz davomchilari bo'lmish yosh tarbiyalanuvchilarga bilim olish ehtiyojini qondirish hamda uqishga bo'lgan qiziqish moyilliklarini shakillantirish, o'z fikrlarini qurmasdan aniq va erkin bayon qilishga urgatishni ta'minlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotalrini tashkil etishda tarbiyachining o'rni beqiyosdir. Shuning uchun tarbiyachi kerakli bilim va malakalarga ega bo'lishi lozim, albata buning uchun esa o'z ustida tinmay mehnat qilmog'i kerak. Tasviriy faoliyat bu-go'zallikdan nafosatdan dars beradigan estetik tarbiyaning maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasidagi mu*hum bo'lgan ilk bosqichlardan biridir. Bundan tashqari tasviriy faoliyat-asliga qarab va tasavvur bo'yicha buyumlar va o'yinchoqlarning rasmini chizishga hamda o'lchamini fazoviy joylanishi hamda ularda manzaralar go'zalligini tabiat anglashga o'rgatish zarur. Ayniqsa bu ishlarni tashkil etishda tarbiyachining o'rni beqiyosdir. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarni tabiatga bo'lgan muhabbatini yanada rivojlantirish bo'yicha turli tuman o'yinlar yordamida urgatiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta yoshli tarbiyalanuvchilarni maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun zarur bo'lgan vazifalar ham hal qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti katta yoshli tarbiyalanuvchilari tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jarayonida fikrlarini analiz-sintez va takrorlash ko'nikmalari shakllana boradi. Shuningdek bu mashg'ulot davomida bolalar jamoada ishlash, o'z xati-harakatlarini boshqarishga harakat qiladi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jarayonida maktabgacha ta'lim katta yoshli bolalarni badiiy didini tarbiyalash hamda amaliy badiiy faoliyat va malakarini rivojlantirish va fikrlashini yoki fantaziyasini va tasavvur qilish qobiliyatini hamda qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish kerak. Tasviriy faoliyat-bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish shuningdik, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy, vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazodajoylashishini ajratishni o'rgatadi. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy



sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o‘z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o‘ynaydi. Shuningdek bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Bundan tashqari tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida qalam hamda mo‘yqalamdan erkin foydalanishga o‘z harakati va qo‘l kuchini idora etishga o‘rganadilar. Bu esa bolalardamalakani egallash hamda bolalarda qo‘lni yengil, va erkin bir tekisdagi harakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari tayyorlov guruhlarida birmuncha murakkablashadi sababi tayyorlov guruhi bolalari naturaga qarab rasm chizish yoki rasmlarni tasvirlashga nisbatan talablar oshadi va bu talablar o‘z navbatida maktab talabiga yaqin turadi. Naturaga qarab rasm chizishda ishning ketma ketligi ko‘rsatiladi va tayyorlov guruhi hamda kata guruhlarda o‘rganishning boshlang‘ich bosqichi amalga oshiriladi. Tarbiyalanuvchilar naturani qog‘ozga tushirishga, ketma-ketlikda bajarishga, kamchiliklarini to‘g‘rilashga harakat qiladilar. Shuningdek tasviriy faoliyat jarayonida bolalarturli xil material (qog‘ozdan tashqari mel va bo‘yoqlar) bilan ulaming o‘ziga xos xususiyatlari hamda ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, Bu esa bolalarni aqlan o‘shishiga sabab bo‘ladi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari rivojlanishga imkon beradi va bu o‘z navbatida bolalarni oqilona o‘shishiga olib keladi. Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatining ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog‘lanadilar hamda ulaming o‘ziga xos sifatlari va shakli hamda rangi yoki katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o‘xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko‘rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Chunki, bolalar o‘z ishlarida burning hayotimizda hamda jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar va ulardan mamnun boladilar va hayajonlanadilar.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki: tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo‘ladi. O‘z navbatida boshqa ta‘lim-tarbiyaviy ishlarining vazifalari bilan chambarchas bog‘liq. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini o‘tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlarga



tayanadi. Bolalar tasvirlamoqchi bo‘lgan predmet haqida tasavvurga ega bo‘lsalar ular rasm va loy hamda applikatsiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Qodirova F.R, Qodirova R.M. Bolalar metodik ishlar. Darslik.2012.
2. Qayumova N. Makatgabcha pedagogika. T 2013.
3. Qodirova F. R. Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi. T. 2013.
4. <https://gendocs.ru>
5. <https://n.ziyouz.com>
6. <http://www.genderi.org>



TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV JARAYONIDA QONUNIYLIK

Zaripova Shaxnoza O'ktamjon qizi
Sergeli tumani IIO FMB Tergov bo'limi
tergovchisi, kapitan

Annotatsiya: maqolada tergovga qadar tekshiruv sifatida jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirish, ularni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qonuniylik, jinoyat ishini qo'zg'atish, tergov bo'limi, prokuror, qonuniylikning buzilishi, prokurorning vakolatlari.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud huquq islohotlarining asosiy maqsadi shiddat bilan o'zgarayotgan zamon talablariga javob beradigan, inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida kafolatlaydigan qonunchilik tizimi va uni amalga oshirish mexanizmini to'liq shakllantirish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish ayniqsa jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal etish, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash va ular uchun javobgarlik va jazoning muqarrarligini ta'minlash, jinoyatdan jabrlangan shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash, shuningdek ushbu jarayonlar davomida qonuniylik ta'minlanishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat-protsessual faoliyat davomida jinoyat protsessining maqsadlariga erishishni ta'minlovchi bir qancha huquqiy mexanizmlar mavjud bo'lib, ular jinoyat-protsessual faoliyatning amalga oshirilishi tartibi, shakli va mazmunini belgilaydi.

Jinoyatga oid ariza va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, ko'rib chiqish va hal etishdan iborat faoliyat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining normalari va idoraviy normativ-huquqiy xujjatlar bilan tartibga solingan bo'lib, uni amalga oshirishda surishtiruvchi, tergovchi va prokuror tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar va qabul qilinadigan qarorlar qonuniylik va asoslantirilganlik talablariga javob berishi lozim.

Zero JPKning 382-moddasi 3-qismi 1-bandida va O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasi 1-qismi 2-bandida "...sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va ma'lumotlarni qabul



qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va hal etish to‘g‘risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini har oy kamida bir marta tekshiradi”, deb belgilangan.

Aynan yuqorida keltirilgan qonun buzilishlarini oldini olish zaruriyati jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida qonuniylikni ta‘minlash tizimini yaratilishini va ishchan mexanizmini joriy etilishiga ehtiyojni tug‘diradi. Jinoyatga oid xabarlarni ko‘rib chiqishda qonuniylikni ta‘minlash jinoyatga oid xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, hisobga olish va hal etish tartibiga rioya etishni tekshirish orqali ro‘yobga chiqariladi. Ichki ishlar organining boshlig‘i har kuni hodisalar to‘g‘risidagi xabarlarning o‘z vaqtida va to‘liq ro‘yxatga olinishi hamda hal etish muddatlariga rioya etilishi, jinoyatlarni hisobga olish kitobi hamda hodisalar to‘g‘risidagi xabarlarni hisobga olish jurnalining to‘g‘ri yuritilishini nazorat qilishi lozim, jinoyatga oid xabarlarning ichki ishlar organida ro‘yxatga olinishining to‘liqligini solishtirib chiqishi kerak.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi shaxsning protsessual faoliyatida qonuniylikni ta‘minlash ham jinoyat-protsessual xususiyatga ega bo‘ladi. Biroq, hozirgi kunga qadar tergovga qadar tekshiruv jarayonidan qonuniylikni ta‘minlash muammolari qonunchilikda tergov amaliyotining muammolariga mos ravishda hal etilmagan. Masalan, JPK 329-moddasining 5-qismiga asosan, jinoyat to‘g‘risidagi arizalar va xabarlarni tergovga qadar tekshirish muddatini surishtiruvchi yoki tergovchining asoslantirilgan qarori bo‘yicha bir oygacha uzaytirish huquqi faqat prokurorga berilgan. Amalda esa mazkur jaryonda qonuniylikni ta‘minlash bo‘yicha asosiy sa‘y-harakatlar tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov bo‘limi boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida qonuniylikni ta‘minlashning asosiy maqsadi jinoyatga oid xabarlarni ko‘rib chiquvchi tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs, surishtiruvchi tergovchilarning faoliyatiga protsessual rahbarlik qilishdan iborat.

Fikrimizcha, tergovga qadar tekshiruv davomida jinoyat ishini yuritishga mas‘ul bo‘lgan davlat organlari shaxs huquq va erkinliklarining buzilmasligini ta‘minlash bilan birga, ularga o‘z huquqlaridan to‘laqonli foydalanishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim. Jinoyat-protsessual munosabatlarda shaxslarning huquqlarini kafolatlovchi normalar sifatida Jinoyat-protsessual kodeksining 64-moddasini keltirish o‘rinli bo‘ladi. Chunki ushbu norma ishni yuritishga mas‘ul organlarga jinoyat-protsessual



munosabatlarda ishtirok etayotgan shaxslarning qonunda belgilangan huquqlarini tushuntirib berish va bu huquqlarni amalga oshirishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratish majburiyatini yuklaydi. Jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksining 64-moddasida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, shuningdek jabrlanuvchiga, fuqaroviy da'vogarga, fuqaroviy javobgarga va ularning vakillariga berilgan huquqlarini tushuntirib berishi va bu huquqlarni amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlashi shart ekanligi qayd etilgan.

Lekin ushbu normada tergovga qadar tekshiruv jarayonida jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari yoki bevosita ushbu jarayonni amalga oshiruvchi tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi haqida mutlaqo to'xtalib o'tilmagan. Bu esa, o'z navbatida, ushbu jarayon bilan bog'liq muammo va kamchiliklarga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini taqozo etadi.

Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv jarayonida protsess ishtirokchilarining huquqlari kafolatlanganligini biz Jinoyat-protsessual kodeksining 333-moddasida o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu moddada qayd etilganidek, Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasining 1 va 2-bandlarida hamda 84-moddasi birinchi qismining 1, 3–8- bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi, jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxon, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs bu haqda xabardor qilinadi. Shuningdek, ushbu holatda ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqi va tartibi tushuntirilib o'tilishi lozim.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksi normalarida ushbu kodeksning 84-moddasida nazarda tutilgan asoslarni qo'llashdan protsess ishtirokchilariga tegishli asosning mohiyati va uni qo'llash natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni tushuntirish talabi belgilanmagan. Vaholanki, aksariyat shaxslar Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasida o'z ifodasini topgan asoslarning ushbu kodeksning 83-moddasida belgilangan reabilitatsiya (oqlash) uchun asoslar bilan farqini chuqur anglab etmaydilar. Bu esa o'zini aybsiz hisoblamagan ayrim shaxslarga nisbatan ham jinoyat ishini 84-moddada nazarda tutilgan asoslar bilan rad etilishiga va mazkur jinoyatni sodir etgan haqiqiy aybdor



shaxslarning javobgarlikdan qutulib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Yuqorida sanab o'tilganlardan kelib chiqib, Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish haqida qaror qabul qilishdan avval jinoyat protsessi ishtirokchilariga javobgarlikdan ozod bo'lish huquqiga ega ekanligi va ularning qo'llanilishi natijasida qanday huquqiy oqibatlar vujudga kelishi mumkinligi bo'yicha tushuntirishlar berish va ushbu tushuntirishlarni bayonnomada rasmiylashtirishni ishni yuritayotgan mansabdor shaxsga alohida majburiyat sifatida belgilashni Jinoyat-protsessual kodeksida qayd etish zarur, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida va boshqa normativ hujjatlarda surishtiruv, dastlabki tergov va sud jarayonida ishtirok etuvchi jinoyat protsessi ishtirokchilarining tushunchasi va huquqiy maqomlari aniq belgilab o'tilganligini kuzatishimiz mumkin. Lekin bunday fikrni biz ishni sudga qadar yuritish bosqichining dastlabkisi bo'lgan tergovga qadar tekshiruv jarayoni haqida bildirib o'ta olmaymiz.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida ushbu jarayonni bevosita amalga oshirish uchun mas'ul sifatida tergovga qadar tekshiruv organining mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror keltirib o'tilgan bo'lib, ularning huquq va majburiyatlari Jinoyat-protsessual kodeksining 34, 36, 381 va 391-moddalarida ifodalangan.

Shu o'rinda e'tiborimizni tergovga qadar tekshiruv jarayonida bevosita qatnashuvchilar jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiluvchi ishtirokchilarga qaratsak. Ushbu ishtirokchilardan tergovga qadar tekshiruv jarayonida himoyachi (49-53 modda), qonuniy vakil (60-61 modda) va vakillarning (62-63 modda) ishtirok etishini kuzatishimiz mumkin. Ushbu jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlariga e'tibor bilan razm solsak, bu holatda ham tergovga qadar tekshiruv organlari bilan amalga oshiriladigan faoliyat lozim darajada ifodalanmaganligi, holat mavhumligicha qolganligi namoyon bo'ladi.

Faqatgina Jinoyat-protsessual kodeksining 49-moddasining to'rtinchi qismida himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganda esa uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etilishi belgilangan.



Tergovga qadar tekshiruv jarayonida asosiy e'tibor berishimiz lozim bo'lgan holatlardan biri bu tergovga qadar tekshiruv o'tkazilayotgan shaxsning huquq va majburiyatlarini belgilab olish, qolaversa uning huquqiy maqomini aniqlash zarurati bo'lib hisoblanadi.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida tergovga qadar tekshiruv o'tkazilayotgan shaxsning huquq va majburiyatlarini ifodalashga qaratilgan normativ hujjatlar Jinoyat-protsessual kodeksida aks etgan bo'lib, ushbu normalar faqatgina e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lgan holatlarda va tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxs Jinoyat-protsessual kodeksining 224-moddasi tartibida ushlab turilgandagina ta'sir doirasiga ega.

Bizning fikrimizcha, tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxs huquq va erkinliklarining samarali ta'minlanishiga erishish maqsadida ushbu jarayonda ishtirok etayotgan, ya'ni tergovga qadar tekshiruv o'tkazilayotgan shaxsning jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatidagi huquqiy maqomini belgilash va ushbu shaxsning huquq va majburiyatlarini Jinoyat-protsessual kodeksi normasida aks ettirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tergovga qadar tekshiruv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan huquqiy asoslarining yanada takomillashtirilishi, mavjud kamchiliklarning bartaraf etilishi, mavjud normalarning samarali qo'llanilishi har bir jinoyat ishi yuzasidan adolatning qaror topishiga xizmat qilib, jinoyat-protsessual munosabatlarda shaxs huquqlarini ta'minlashda muhim institutlardan biriga aylanishi, shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saitbaev T.R., Zokirov B.E. Jabrlanuvchi va guvohlarni himoya qilishning huquqiy va tashkiliy muammolari // Huquq – Pravo – Law. – 2019. – № 2. – B.51-52.;
2. Muxitdinov F.M. "YUrisprudensiya" mutaxassisligi "Jinoyat huquqi" sohasining "Viktimologiya" fani bo'yicha O'quv-uslubiy qo'llanma – T: IIV Akademiyasi, 2019. – B.34.
3. Astanova L.A. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar. – T., 1997. – B.68.



4. Saidov B.A. Ishni sudga qadar yuritishda shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash: Monografiya. –T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – B.235.



SHAXSNI HUQUQ VA ERKINLIKLARINI CHEKLASHDAN HIMOYA QILISH MASALALARI

Zaripova Shaxnoza O'ktamjon qizi
Sergeli tumani IIO FMB Tergov bo'limi
tergovchisi, kapitan

Annotatsiya: maqolada shaxsni noqonuniy jinoiy ta'qib va ayblovdan, huquq va erkinliklarini cheklashdan himoya qilishning muammoli masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: noqonuniy harakatlar, reabilitatsiya, ziyonni qoplash, huquqlarni tiklash, jinoyat protsessi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida taraflarning tortishuv tamoyili qo'llanilishini yanada kengaytirish hamda ushbu sohada xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, sud-tergov amaliyotini tahlil qilish va fuqarolar murojaatlarini o'rganish natijalari jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash bo'yicha mexanizmlar to'liq ishga solinmaganligidan, shuningdek, qonunchilikda jinoyat ishlarini tergov qilish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlarini aniq belgilash bilan bog'liq bo'shliqlar mavjudligidan dalolat bermoqda.

Adolatga qonunlarning so'zsiz ijrosini ta'minlash orqali erishilishi nuqtai nazaridan yondashsak, sud va odil sudlovning bu boradagi o'rni hamda ahamiyati yaqqol ayon bo'ladi. Davlatimiz rahbari tomonidan «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak», «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» yoki «Davlat ham, islohotlar ham inson manfaatiga xizmat qilishi kerak» degan tamoyillar ilgari surilgani bejiz emas.

Nega deganda, O'zbekiston Konstitutsiyasi va shu asosda ishlab chiqilgan Taraqqiyot strategiyasida inson omili, insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalasi birlamchi o'rinda turadi. Insonni e'zozlashga qaratilgan tizimli va izchil islohotlar – yangilanayotgan O'zbekistonning yangicha davlat siyosati zamirida ana shu ezgu g'oya mujassam.



Shuni ham qayd etish joizki, insonning jamiyatda azizligi uning huquqlari qay darajada ro'yobga chiqayotgani, bu boradagi qonunlar ijrosi, huquqni to'g'ri, adolatli qo'llash misolida namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z nomi bilan aytganda, odil sudlovni ta'minlash demakdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, avvalo, sud mustaqilligini to'liq ta'minlash – yaqin kelgusidagi eng muhim vazifalarimizdan biri bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu borada amalga oshirilgan ishlar xususida “Biz sud-huquq sohasini tubdan isloh qilishga alohida ahamiyat berayotganimiz bejiz emas. Chunki, Konstitutsiyamizda mustahkamlangan inson huquqlarini ta'minlash ushbu islohotlarning amaliy natijasi bilan bevosita bog'liqdir”, deb ta'kidlagan.

Ushbu maqsadga erishish ayniqsa jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal etish, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash va ular uchun javobgarlik va jazoning muqarrarligini ta'minlash, jinoyatdan jabrlangan shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash, shuningdek ushbu jarayonlar davomida qonuniylik ta'minlanishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va hal etish bo'yicha amaliyotni o'rganish jinoyat ishini qo'zg'atishda qonuniylik talablarining buzilishi jinoyatga oid xabarlarni qabul qilish bosqichida ham (jinoyatlarni hisobga olishdan yashirish; sodir etilgan jinoyat to'g'risidagi xabarlarni soxtalashtirish; turli bahonalar bilan arizani qabul qilishni rad etish), jinoyatga oid xabarlarni tergovga qadar tekshirish va tegishli protsessual qaror qabul qilish jarayonida ham (jinoyatning aniq alomatlari bo'lganda jinoyat ishini qo'zg'atishni asossiz ravishda rad qilish; tergovga qadar tekshiruv materiallari va qabul qilingan qarorlarni soxtalashtirish; jinoiy jazolanadigan qilmishni ma'muriy huquqbuzarlik sifatida kvalifikatsiya qilish; tergovga qadar tekshiruv muddatini o'tib ketishi, protsessual qarorni o'z vaqtida qabul qilmaslik; tergovga qadar tekshiruv bosqichida JPK bilan ruxsat etilmagan tergov va boshqa harakatlarni o'tkazish; asossiz ravishda jinoyat ishini qo'zg'atish) holatlari mavjudligini ko'rsatadi.



Sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatga oid aksariyat xabarlar ish yurituviga qabul qilinmasligi muayyan hudud va butun respublika miqyosida jinoyatchilikning haqiqiy holati, uning aniq tarkibiy tuzilishi va dinamikasini buzib ko'rsatilishini keltirib chiqaradi, buning natijasida esa davlat organlari tomonidan unga qarshi kurash strategiyasi va taktikasi to'g'ri belgilanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

MJTKning 288-moddasiga binoan, ma'muriy yo'l bilan ushlab turish uch soatdan ortiq davom etishi mumkin emas, alohida zarurat munosabati bilan qonun hujjatlarida boshqacha muddatlarning belgilanishi bundan mustasno. Agar shaxs o'zining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirsa yoki MJTKning 288-moddasida ko'rsatilgan ma'muriy huquqbuzarliklardan birini sodir etgan bo'lsa, u holda 24 soatdan ko'p bo'lmagan muddatga ushlab turilishi mumkin.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati huquqbuzarni bayonnoma tuzish uchun olib kelish paytidan boshlanadi, mast holdagi shaxslar uchun esa — ular hushyor tortgan vaqtdan boshlanadi.

MJTKning 286-moddasiga binoan, ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko'ra, u ushlab turilgan joy haqida uning qarindosh-urug'lari, advokat, ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyat xabardor qilib qo'yilishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar albatta xabardor qilinadi. Ushlab turilgan shaxs ushlab turish to'g'risidagi bayonnomani imzolashdan bosh tortishi mumkin.

MJTKning 273-moddasiga binoan, agar ushlab turilgan shaxs ish ko'rib chiqilayotgan tilni bilmasa, tarjimon orqali ish materiallari bilan to'liq tanishish va ishni mohiyati bo'yicha ko'rib chiqish chog'ida qatnashish huquqi, shuningdek o'z ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Adolat – insonga berilgan ne'matlardan eng afzalidir. Shuning uchun odamzod har ishda adolatga tayanadi, hayotni shu mezon bilan o'lchashga intiladi. Adolat biz uchun nafaqat tabiiy, balki ma'naviy va ijtimoiy ehtiyoj hamdir. Har qanday jamiyat va davlatda adolatga, demakki, sudlarga, odil sudlovga bo'lgan ishonch muhim o'rin tutadi.



Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 avgustdagi «Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6041-son Farmoni // <https://www.lex.uz/docs/4939467>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi: (2021 yil dekabrgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan): Rasmiy nashr / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat” huquqiy axborot markazi, 2021. – B.

3. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism: Darslik / Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU, 2017. – B. 168.



Teaching English by basing on pedagogical technologies.

Olimjonova Gulnoza No'monjon qizi

Guliston davlat universiteti Xorijiy til va adabiyoti
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotation

This article discusses about using pedagogical technologies in teaching English. Additionally, throughout this article, it is given some information about using technologies in today's world.

Key words:

Pedagogical technologies, education, educational programs, requirements, devices, modern pedagogy, education system, quality of education, multimedia programs.

Today, improving the quality, efficiency of education as well as raising common demands have become one of the unchanged movements of state policy, this is being common issue which is faced by a modern pedagogue. At the time, the rapidly improving areas of science, technology and production require enhancing the quality of education to a new level by means of content in the continuous education system.

The progress which is made in education growing young generation, forming them as intelligent mature, independent, and fulfilling specialists in all fields, and also training teachers who work loyally for their profession, of course, depends on a continuing education process. It is hardly secret is that the quality as well as effectiveness of education relies on the quality of the education which is provided.

Therefore, to improve the quality of education, we must always work on our own, besides conducting new researches. In order to design educational process is necessary to identify the content of education, educational aim, expected results, select the right way of teaching, forms, and devices, stimulate specific criteria for evaluating the knowledge of students, skills, and qualifications in advance, it is needed to pay attention to their correct implementation and harmony with one another in the time which is allocated.

The overall pedagogical and didactic requirements for all types of education is to raise the efficiency of work which does independently on the basis of the students' knowledge of programming, imagination and skills to stimulate their interests in scientific thinking, and also academic subjects to approach deep their professional knowledge, through both theoretical and practical training includes increasing their activity.

Basing on these requirements, subjects which are related to cutting-edge information technologies were involved the curriculum of the system of the education, their model



curricula were improved ,approved , and implemented by the Ministry of both Higher and Secondary special Education of The Republic of Uzbekistan.

Today,multimedia programs ,modern pedagogical technologies,and modern way of teaching are commonly used in the progress of the education.Preserving the form of traditional lessons in the previous teaching methods, while immersing the students in these lessons in ways that make active the students ' activities is the reason for the improvement in the level of learning of the learners.

It should be noted is that language is never unchanged ,it is always being changeable ,and developable .So, every applicant who is learning a foreign language, especially, English ought to work on his own outside of class ,make an improvement in his vocabulary,read lots of national literature and foreign literature ,additionally ,learn how to translate independently.

That is why, while translating small materials bilaterally from English into Uzbek,or else ,from Uzbek into English, he learns the mistakes which he makes and works independently on his drawbacks .

In resent years , educational programs which are ready - made have appeared on the internet, these programs may motivate students to learn foreign languages in terms of powerful interest.

For instance, when English language lessons are taught in computer classrooms, students not only being attracted to electronic textbooks,but also the phonetic exercises of the new word which they are learning, various expressions ,grammatical sentences are being heard and accepted by students which in turn, it means is that another opportunity to master the language well.At the age of computer has significantly made with ease the work of teachers ,and also lessons based on cutting -edge technologies are being properly organized is the reason for using of the time efficiently.

Today's youth are very energetic,and depending on their opinion, knowledge of information technologies and the experience of teachers,it needs to keep creating new electric programs and books in English that meet the time requirements.Now,there is no problem for teachers to prepare didactic visual aids,audio -materials ,and handouts.

In order to reach an achievement in the intended results,it is essential to further enhance the process of the education,that is way ,in today's education,it needs to create new content ,form ,as well as methods,to use both modern pedagogical and information technologies effectively,to use diveces like distance learning, electronic communication,and also electronic library.



Reference

1. Бекмуратов Т.Ф., Информационные системы в образовании // Ta'limda axborot texnologiyalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami.- T:ТДПУ,2000.
2. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования.-М ,2000.
3. Китайгородская Г,А.Методика интенсивного обучения иностранным языкам, -М,2002.



СУВ ТАҲЧИЛЛИГИ ШАРОИТИДА САМАРАЛИ ФҲЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ - АМАЛИЙ АСОСЛАРИ

Р.Кодиров

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнолигялар институти
Гидротехника ва мелиоратив иншоатлар ” кафедраси доценти

АННОТАЦИЯ

Ушбу ишда Андижон вилоятида сувнинг сарфини самарали ошириш ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, янги навлар ва уларнинг кўрсаткичлари хақида маълумот берилган. Ўғитлаш ва суғориш жараени хақида гапирилган.

Калит сўзлар: манба, ресурс, нав, ҳосил, минерал ўғит.

РЕЗЮМЕ

В данной работе дается информация о эффективном использовании воды, процессе производства сельскохозяйственной продукции, новых сортах и их показателях, а также о технологии подкормки минеральными удобрениями и полива в Андижанской области.

Ключевые слова: источник, ресурс, сорт, урожай, минеральные удобрения.

ABSTRACT

In this work, information is provided on the effective increase of water consumption and the cultivation of agricultural products, new varieties and their indicators. Fertilization and irrigation procedures are mentioned in the Andijan region.

Key words: source, resource, variety, yield, mineral fertilizer.



Бугунги кунда XXI асрнинг энг глобал муаммоларидан бири - сув ресурсларининг ўта танқислигидир. Сув - ўта чекланган ресурс бўлиб, унинг манбаларини эгаллаш ҳозирданоқ геосиёсатнинг зарурий омилларидан бўлиб, жахондаги кескинликлар ва можаролик вазиятларнинг сабабларидан бирига айланмоқда. Сўнгги 70 йил ичида ичимлик суви истеъмоли ер шарида 10 мартага ошди. Дунё қишлоқ хўжалигида сув тақчиллиги шароитида экинларни илмий асосланган суғориш тартибларга амал қилиш бугунги кунда экинлар ҳосилдорлиги ортиши ва унинг сифатига ижобий таъсирини кўрсатмоқда. Шу жиҳатдан сув ва ресурсларни тежайдиган замонавий илмий асосланган суғориш тартибларини, ҳамда ерларининг мелиоратив ҳолатини яхшилаш бўйича изланишлар олиб бориш долзарб ҳисобланади.

Республикамизнинг турли тупроқ иқлим шароитларидан келиб чиқиб, такрорий соядан кейин кузги буғдойни суғориш тартиби ва меъёрларини ишлаб чиқиш, юқори ва сифатли дон ҳосили олиш орқали озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашга эришиш мумкин. Жумладан, Андижон вилоятининг ўтлоқи бўз тупроқлари шароитида кузги буғдой навларини эгатлаб суғоришда назарий суғориш техника элементлари, суғориш тартиблари ва меъёрларини ўсиш, ривожланиш ва ҳосилдорлиги ҳамда унинг сифат кўрсаткичларига таъсири илмий асосланмаган. Ўзбекистон Республикасининг 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясидаги “Суғориладиган ерларда бошоқли дон етиштиришни янада кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш соҳасига интенсив усулларни, энг аввало маҳаллий ер-иқлим шароитларга мослашган қишлоқ хўжалиги экинларининг бошоқли дон экиладиган майдонларда замонавий агротехнологияларни жорий этиш, айниқса ғаллачиликни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилган² Шунингдек, кузги буғдой навларидан барқарор юқори ҳосил олишда суғориш тартибларига боғлиқ ҳолда унинг ривожланиш даврларида суғориш тартибини ўрганиш ҳамда ишлаб чиқаришга кенг жорий этиш бўйича илмий изланишлар муҳим аҳамиятга эга.



Мустақиллик йилларида мамлакатимиз сув хўжалигида жуда катта ўзгаришлар амалга оширилди. Жумладан, сув ресурсларини бошқариш тизими такомиллаштирилди, суғориш тармоқларининг техник ҳолатини яхшиланди, суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва уларнинг сув таъминотини ошириш борасида кенг кўламдаги ишлар олиб борилди. Сувни тежайдиган замонавий технологияларни жорий қилиш, автоматлаштирилган бошқарув ва кузатув тизимини ўрнатиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришни диверсификация қилиш ишларига кенг эътибор берилди. Ушбу тадбирлар натижасида бугунги кунда 43 минг га. майдонда томчилатиб, 46,4 минг га. майдонда эгатга плёнка тўшаб ва 34,0 минг га. майдонда ўқ ариқлар ўрнига илувчан қувурлар ёрдамида суғориш усуллари жорий этилди, 1 млн 200 минг га. ерларнинг мелиоратив ҳолати яхшиланди, кучли ва ўрта шўрланган ерлар майдони 149,4 минг га, сизот сувларининг сатҳи ерга яқин жойлашган майдонлар 302,9 минг гектарга камайди, 1 млн. 300 минг га. ернинг сув таъминоти яхшиланди, мелиорацияланган ерларда ғўза ҳосилдорлиги 3-4 ц/га ва буғдой ҳосилдорлиги 4-5 ц/га га ошишига эришилди.

Тадқиқот натижаларининг илмий аҳамияти Андижон вилояти ўтлоқи бўз тупроқлари шароитида кузги буғдой навларининг ўсув даври ва ривожланиш фазаларини ўтиш муддатларига, тупланишга, барг майдонига, фотосинтетик потенциалига, фотосинтез соф маҳсулдорлигига ҳамда дон ва сомон ҳосили, дон сифат кўрсаткичларига маъданли ўғитлар меъёрларининг таъсири аниқланганлигидан иборат.

Тадқиқот натижаларининг амалий аҳамияти Андижон вилояти ўтлоқи бўз тупроқлари шароитида кузги буғдой навларидан “Половчанка”, “Дурдона”, “Чиллаки”, мўл ва сифатли дон ҳамда сомон ҳосили олишда мақбул маъданли ўғитлар меъёрлари ва самарадорлиги илмий асосланганлиги билан изоҳланган.

Суғориладиган ўтлоқи бўз тупроқларнинг агрокимёвий тавсифи.



Тупроқ намунаси олинган қатлам, см	Гумус, %	Умумий миқдори, %			Ҳаракатчан миқдори, мг/кг		
		азот	фосфор	калий	N-NO ₃	P ₂ O ₅	K ₂ O
0-10	1,02	0,081	0,154	1,53	18,2	25,6	205
10-28	0,93	0,063	0,142	1,54	10,5	21,0	170
28-36	0,81	0,057	0,128	1,36	6,4	10,3	150
36-62	0,29	0,046	0,105	1,20	4,8	8,0	130
62-89	0,20	0,011	0,067	1,05	2,3	5,4	8,0

Азот – ўсимликлар ҳаётида муҳим ўринни эгаллаб, у оксил, нуклеин кислоталар, хлорофиллни таркибий қисми ҳисобланади. Ўсимликларда азот танқислиги сезилса, уларни ўсиши ва ривожланиши секинлашади, барглари майдалашиб, оч яшил рангга киради, поялар майдалашиб, ҳосил шаклланиши сусаяди ва унинг миқдори камаяди.

Калий тупроқда қуйидаги шаклларда намоён бўлади:

1) сувда эрувчан; 2) алмашинувчи; 3) қийин алмашинувчи ёки заҳирадаги ва фиксацияланган калий; 4) ноалмашинувчи, шу ҳисобда фиксацияланган калий; 5) эрмайдиган алюмосиликатлар таркибидаги калий; 6) тупроқ органик қисмидаги калий (микроблар, органик қолдиқлар). Сувда эрувчан калий миқдори кам бўлиб (бу тупроқни калий билан тўйинганлик даражаси ва эритмадаги тузларнинг умумий концентрациясига боғлиқ), тупроқ эритмасидаги карбон, азот ва фосфор кислоталар тузлари таркибида мавжуд.

Кузги буғдойнинг “Дурдона”, “Чиллаки” ҳамда “Половчанка” навларидан ҳам ишлаб чиқариш шароитида олиб борилган тадқиқот майдонимизда юқори дон ва сомон ҳосили олинган бўлсада, “Дурдона” ҳамда “Чиллаки” навидан биров паст натижалар олинди [2,3].



Изланишларимизда олинган таҳлил ва натижаларига асосан Андижон вилоятининг ўтлоқи бўз тупроқлари шароитда МДХ давлатидан олиб келинган кузги буғдой навларига ўзимизда яратилган маҳаллий навлар рақобат қила олиши яна бир бор исботланди. “Дурдона”, “Чиллаки” навларини етиштиришда маъдан ўғитларни йиллик меъёрини $N_{200} P_{120} K_{120}$ кг/га миқдорда, “Дурдона”, “Чиллаки”, “Табор”, “Первица” навларида $N_{250} P_{140} K_{140}$ кг/га ўғитлаш меъёрини қўллаш тавсия этилади.

Адабтётлар рўйихати

1. Мирзажонов К.М. Сув бутун борлиққа ҳаёт бахш этар (Вода дарит жизнь для всей вселенной) /Пахтачилик ва дончиликни ривожлантириш муаммолари (Проблемы развития хлопководства и зерноводства). Ташкент, 2004. С. 60–65.

2. Хасанова Ф. М., Қорабоев И. Кузги буғдой экишда минимал техналогияни экиш меъёрлари ва ҳосилдорликка таъсири //Ўзбекистон республикаси қишлоқ хўжалигида сув ва ресурс тежовчи агротехналогиялар. Халқаро илмий–амалий конференция тўплами. Тошкент, 2008.б. 331.

3. Кадиров Р.Н. Влияние норм подкормки и орошения озимой пшеницы сортов Дурдона и Аср на урожайность зерна и саломы “Мелиорация и водное хозяйство” журнал.Россия -2019. №4 29-30- б.

4.Кадиров Р.Н. Такрорий соядан кейин экилган истиқболли Дурдона, Аср навларининг сув баланси. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. Тошкент-2012.

5. Сиддиқов Р.,Рахимов М. Фосфорли ўғитларни қўллаш усулларининг кузги буғдой дон ҳосилига таъсири. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -2018. №11.-37 бет.

6. Таблица данных урожайности зерновых в ведущих странах мира за 2013 год. URL: <http://total-rating.ru/1439-urozhaynost-zernovyh-v-stranah-na-2013-god.html>.



7. Кадиров Р.Н. Кузги буғдойнинг Аср ва Дурдона навлари даласининг ер-сув мувозанати. //Экология хабарномаси. -2018. №11 -19-21 бетлар.

8. [Электронный ресурс: <https://news.mail.ru/economics-/50923379/-?frommail=1>]
(18.01.2022 г.)



Shirin qalampir navlarini turli muddatlarda ekishning hosildorlik va hosil sifatiga ta'siri

**Toshkent Davlat Agrar Universiteti Samarqand Filiali O'simlikshunoslik va meva sabzavotchilik Magistratura 2-bosqich talabasi
Hayotjon Abdisatorov Xaydarali o'g'li
Ilmiy rahbar: q.x.f.f.d, dotsent X.X.Xonqulov.**

